

**SAMARQAND DAVLAT UNIVERSITETI**  
**HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI**  
**PhD.03/30.01.2020.Ped.02.06 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**SAMARQAND DAVLAT CHET TILLAR INSTITUTI**

**OKILOVA KAMOLA SADULLOYEVNA**

**O‘QITUVCHILARNING UZLUKSIZ KASBIY RIVOJLANISHGA  
MOTIVATSION TAYYORLIK KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISH**

**13.00.01 – Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta’limotlar tarixi**

**PEDAGOGIKA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)  
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

**Samarqand – 2023**

**Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati  
mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по  
педагогическим наукам**

**Contents of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD) on  
pedagogical sciences**

**Okilova Kamola Sadulloyevna**

О'qituvchilarning uzluksiz kasbiy rivojlanishga motivatsion tayyorlik  
kompetentligini rivojlantirish ..... 3

**Окилова Камола Садуллаевна**

Развитие компетентности мотивационной готовности педагогов к  
непрерывному профессиональному развитию ..... 21

**Okilova Kamola Sadulloevna**

The development of competence of motivational readiness for continuous  
professional development of teachers ..... 41

**E'lon qilingan ishlar ro'yxati**

Список опубликованных работ  
List of published works ..... 45

**SAMARQAND DAVLAT UNIVERSITETI**  
**HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI**  
**PhD.03/30.01.2020.Ped.02.06 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**SAMARQAND DAVLAT CHET TILLAR INSTITUTI**

**OKILOVA KAMOLA SADULLOYEVNA**

**O‘QITUVCHILARNING UZLUKSIZ KASBIY RIVOJLANISHGA  
MOTIVATSION TAYYORLIK KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISH**

**13.00.01 – Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta’limotlar tarixi**

**PEDAGOGIKA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)  
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

**Samarqand – 2023**

**Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasida B2022.1.PhD/Ped195 raqami bilan ro'yxatga olingan.**

Dissertatsiya Samarqand davlat chet tillar institutida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengashning veb-sahifasida (<http://samdu.uz/ixtisoslashgankengash>) va "ZiyoNET" Axborot-ta'lim portalida ([www.ziynet.uz](http://www.ziynet.uz)) joylashtirilgan.

**Ilmiy rahbar:**

**Mahmudova Muyassar**  
pedagogika fanlari doktori, professor

**Rasmiy opponentlar:**

**Shodiyeva Matluba Jo'rayevna**  
pedagogika fanlari doktori, dosent

**Xasanova Kibriyo**  
pedagogika fanlari nomzodi, professor

**Yetakchi tashkilot:**

**Jizzax davlat pedagogika universiteti**

Dissertatsiya himoyasi Samarqand davlat universiteti huzuridagi PhD.03/30.01.2020.Ped.02.06 raqamli Ilmiy kengashning 2023-yil «5» may soat 14:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 140104, Samarqand shahri, Universitet xiyoboni, 15-uy. Tel: (0366) 239-12-29, faks:(0366) 239-13-87; e-mail: [Samdu\\_Ped\\_kengash@mail.uz](mailto:Samdu_Ped_kengash@mail.uz)).

Dissertatsiya bilan Samarqand davlat universitetining Axborot – resurs markazida tanishish mumkin. (12 raqami bilan ro'yxatga olingan). (Manzil: 140104, Samarqand shahri, Universitet xiyoboni, 15-uy. Tel: (0366) 239-11-87).

Dissertatsiya avtoreferati 2023-yil «20» 04 kuni tarqatildi.  
(2023-yil «20» 04 dagi 23 raqamli reyestr bayonnomasi).



**X.I.Ibraimov**  
ilmiy darajalar beruvchi  
Ilmiy kengash raisi,  
pedagogika fanlari doktori, professor

**Sh.R.Urakov**  
ilmiy darajalar beruvchi  
Ilmiy kengash kotibi, pedagogika fanlari  
bo'yicha falsafa doktori (PhD)

**N.Sh.Shodiyev**  
ilmiy darajalar beruvchi  
Ilmiy kengash qoshidagi ilmiy seminar raisi,  
pedagogika fanlari doktori, professor

## **KIRISH (doktorlik (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)**

**Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati.** Jahonda ta'limning globallashuvi natijasida o'qituvchilarning intellektual darajalari, kasbiy mahorati, o'qitish tizimining takomillashuviga qo'yiladigan talablarning ortib borishi ularning malakasini uzluksiz oshirish va shaxsiy-kasbiy rivojlanishni rejalashtirishga e'tiborni kuchaytiradi. Rivojlangan mamlakatlar pedagogik tizimida o'qituvchining kompetentlik darajasini o'stirish, shaxsiy samaradorlikka erishishda, avvalo, uning o'z kasbiga bo'lgan munosabati va uzluksiz kasbiy rivojlanish, jamiyatning o'zgaruvchan talablaridan kelib chiqadigan ijtimoiy buyurtmani to'laqonli bajarishda eng muhim komponent, ya'ni uning motivatsion tayyorlik kompetentligini rivojlantirish dolzarb vazifa etib belgilanganligi sohani barqaror taraqqiy ettirishning ustuvorligini, keng ko'lamdagi ilmiy izlanishlar olib borish muhim ahamiyatga egaligini ko'rsatadi.

Dunyoning bir qancha universitetlari, ilmiy-tadqiqot institutlari, o'qituvchilarni kasbiy rivojlantirish markazlari tomonidan mutaxassislarda kasbga nisbatan motivatsiyani barqarorlashtirish, uzluksiz kasbiy rivojlanish(UKR)ga, mahoratini oshirishga motivatsion tayyorlik kompetentligini rivojlantirish va unga ta'sir etuvchi ijtimoiy, psixologik, pedagogik omillarni tadqiq etish bo'yicha ilmiy izlanishlar olib borilmoqda. Sohada motivatsion tayyorlik kompetentligini rivojlantirishda innovatsion va integrativ jarayonlarning ta'minlanishi, ta'lim boshqaruvi hamda o'qitishda variativlik, faollashtirish, individuallashtirish, kreativlik, uyg'unlashtirish kabi tamoyillar mavjudligini, uzluksiz kasbiy rivojlanishning kompetensiyaviy, shaxsga yo'naltirilganligini hamda faoliyatli, rivojlantiruvchi, refleksiv xarakterga ega bo'lishini taqozo qiladi.

Respublikamizda so'nggi yillarda olib borilgan keng ko'lamli islohotlar natijasida xalq ta'limi xodimlarini uzluksiz kasbiy rivojlantirish (XTXUKR) tizimining moddiy-texnik bazasi, huquqiy-me'yoriy, ilmiy-metodik ta'minoti mustahkamlandi, malaka oshirishda raqobat muhitini yaratish, uzluksizlikni ta'minlash hamda o'qitish natijalarini baholashning ta'sirchan usullari joriy etildi. Bajarilgan ishlar bilan bir qatorda o'qituvchilarda individual kasbiy rivojlanish trayektoriyasini mustaqil tuzish, ularda motivatsion tayyorlik kompetentligini rivojlantirish orqali pedagogik faoliyatini samarali olib borishga tayyorligi, yuksak vazifasini anglash, bilimni doimiy mukammallashtirish, o'z-o'zini o'qitishni tashkillashtirish, faoliyatidan, shuningdek, uzluksiz kasbiy rivojlanishdan subyektiv kutilmalarini ro'yobga chiqarishni ifodalovchi motivatsion, kompetentli yondashuvlarga ehtiyoj tug'ilmoqda. Bu borada ta'lim-tarbiya va ilm-fan sohalarini yanada rivojlantirishning asosiy yo'nalishlaridan biri sifatida "...ta'lim mazmunini sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarish, ijtimoiy soha va iqtisodiyot tarmoqlarining barqaror rivojlanishiga munosib hissa qo'shadigan, mehnat bozorida o'z o'rnini topa oladigan yuqori malakali kadrlar tayyorlash tizimini yo'lga qo'yish", "...mamlakat taraqqiyoti uchun yangi tashabbus va g'oyalar bilan maydonga chiqib, ularni amalga oshirishga qodir bo'lgan, intellektual va ma'naviy salohiyati yuksak yangi avlod kadrlarini tayyorlash" kabi qator vazifalar belgilanib, tizimda innovatsiyalarga ochiqlik, uzluksizlik va uzviylikni ta'minlash,

individuallashtirish, kompetensiyaviylik asosida o'qituvchilarning kasbiy rivojlanishga motivatsiyalarini oshirish uchun qulay sharoitlar yaratish muhim ahamiyat kasb etadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 29-apreldagi "O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-5712-son, 2020-yil 6-noyabrdagi "O'zbekistonning yangi – taraqqiyot davrida ta'lim-tarbiya va ilm-fan sohalarini rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-6108-son, 2022-yil 28-yanvardagi "2022–2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF-60-sonli Farmonlari, 2021-yil 25-yanvardagi "Xalq ta'limi sohasidagi ilmiy-tadqiqot faoliyatini qo'llab-quvvatlash hamda uzluksiz kasbiy rivojlantirish tizimini joriy qilish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-4963-son, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 21-iyundagi "Pedagogik ta'lim sifatini oshirish va pedagog kadrlar tayyorlovchi oliy ta'lim muassasalari faoliyatini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-289-sonli Qarorlari, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 15-maydagi "O'zbekiston Respublikasida Kasbiy malakalar, bilim va ko'nikmalarni rivojlantirish milliy tizimi faoliyatini tashkil etish choralari to'g'risida"gi 287-son, 2022-yil 17-yanvardagi "Xalq ta'limi xodimlarini uzluksiz kasbiy rivojlantirish tizimini tashkil etish tartibi to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida"gi 25-son qarorlari hamda mazkur faoliyatga tegishli me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya muayyan darajada xizmat qiladi.

**Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi.** Dissertatsiya tadqiqoti respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining I. "Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma'naviy-ma'rifiy rivojlantirishda innovatsion g'oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish" ustuvor yo'nalishi doirasida bajarilgan.

**Muammoning o'rganilganlik darajasi.** Motivatsion nazariyalarning ijtimoiy, iqtisodiy va ta'lim sohasidagi ilmiy-amaliy tadqiqi, uning psixologik mohiyati, inson faoliyatidagi ko'rinishlari, ta'siri, fanni o'qitishda o'qituvchilarning, talabalarning motivatsiyasini kuchaytirish, samarali boshqaruv tizimini yaratish va natijadorlikka erishish, o'zlikni namoyon qilish, o'z ichki imkoniyatlaridan foydalanish muammolari mamlakatimizda V.M.Karimova, J.Jalolov, E.G'oziyev, B.R.Samatova, MDHda O.S.Vixanskiy, I.A.Naumovlar, I.A.Zimnyaya, A.N.Leontev, R.S.Nemov, V.V.Petrov, G.V.Rogova, S.L.Rubinshteyn, xorijda A.H.Maslou, D.K.MakKlelland, F.I.Gerzberg, B.F.Skinner, V.H.Vrum, D.M.Makgregor, Nyustrom va Devis, Yeccles, Rodriguyez, E.L.Deci, R.M.Ryan, X.Xekxauzen va boshqalarning izlanishlarida tadqiq qilingan.

Ta'lim tizimida XTXUKRning uzluksizligi va uzviylikini ta'minlash, kompetensiyaviy yondashuv va kompetentlilik, ta'limda o'qituvchi o'rnining o'zgarishi, kasbiy rivojlantirish, mahoratni oshirish, faoliyatini qo'llab-quvvatlash, doimiy ilmiy-metodik yordam ko'rsatib borish va faolligini orttirishga doir tadqiqotlar yurtimizning R.X.Djurayev, X.I.Ibragimov, O'.Q.Tolipov, R.Q.Choriyev, Sh.S.Sharipov, M.M.Vaxobov, B.Xodjayev, Sh.R.O'roqov,

O.A.Qo‘ysinov, MDHning B.G.Ananyev, A.V.Batarshev, Sh.I.Ganelin, E.Zeyer, Z.V.Vozgova, S.M.Godnik, S.I.Zmeyev va xorijning D.E.Dedley, L.Florian, S.B.Meriam, V.Voronov, A.Maslou kabi olimlari tomonidan amalga oshirilgan.

Uzluksiz kasbiy rivojlanish tizimini takomillashtirish, o‘qitishni individuallashtirish va o‘qituvchining o‘z-o‘zini o‘qitishga motivatsiyasini rivojlantirish, tayyorlikning ilmiy-amaliy mohiyati, malaka oshirish tizimini modernizatsiyalash, o‘qitish shakllari, usullarini ta’lim ehtiyojlari asosida belgilash, pedagogik jarayonni loyihalash, variativligini ta’minlash muammolari respublikamizdagi B.R.Adizov, M.U.Ahmedov, G.T.Boymurodova, M.Jumaniyozova, A.A.Ibragimov, D.T.Po‘latova, A.B.Radjiyev, M.J.Shodiyeva, MDHdagi L.M.Dolgova, N.V.Kuzmina, M.A.Choshanov, V.D.Shadrikov, I.Y.Kuznetsova, I.P.Podlasiy, A.N.Shukin, xorijdagi M.A.Al-Hageri, S.Ambarkar va boshqa pedagog olimlarning ishlarida o‘z aksini topgan.

Uzluksiz kasbiy rivojlanish va pedagoglar mahoratini rivojlantirishga oid ko‘pgina nazariy manbalar mavjudligiga qaramay, malaka oshirish subyektlari, resurslari, turlari va shakllarini yagona yondashuvga yo‘naltirgan holda, tinglovchilarning ichki salohiyatini ro‘yobga chiqarish hamda o‘zgarishlarga tayyorlik kompetentligining, o‘z-o‘zini rivojlantirishga motivatsiyaning sezilarli darajada emasligi tizim ishtirokchilarining samarali o‘zaro ta’sirini hosil qilishga doir dolzarb muammolarning saqlanib qolayotganligi mazkur sohada ilmiy tadqiqotlar olib borish zaruriyatini belgilamoqda.

**Tadqiqotning dissertatsiya bajarilgan ilmiy-tadqiqot instituti ilmiy-tadqiqot ishlari rejaları bilan bog‘liqligi.** Dissertatsiya tadqiqoti Samarqand davlat chet tillar instituti ilmiy tadqiqot ishlari rejasining OT–F8062-raqamli “Xorijiy tillarni o‘qitishning kasbiy-pedagogik texnologiyalari va ta’limni boshqarishni takomillashtirishning pedagogik-psixologik masalalari” hamda 2017–2021-yillarga mo‘ljallangan OF–07-son «Harakatlar strategiyasi kontekstida umuminsoniy qadriyatlar va jamiyat barqarorligi» mavzusidagi fundamental ilmiy loyihalari doirasida bajarilgan.

**Tadqiqotning maqsadi** o‘qituvchilarni uzluksiz kasbiy rivojlanishga motivatsion tayyorlik kompetentligini rivojlantirish yuzasidan taklif va tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

#### **Tadqiqotning vazifalari:**

XTXUKRda sohaning maqsadi, vazifalari va mazmunga oid tarkibiy qismlari (barcha subyektlari, resurslari, turlari, shakllari) integratsiyasi asosida o‘qituvchilarning uzluksiz kasbiy rivojlanishga motivatsion tayyorlik kompetentligini rivojlantirishni ta’minlash (mazmunini aniqlashtirish);

kompetentli yondashuv asosida o‘qituvchilarning kasbiy-pedagogik faoliyatga, o‘z-o‘zini o‘qitishga tayyorligini mazmunan modernizatsiyalash, uzluksiz kasbiy rivojlanishga motivatsion tayyorlik kompetentligini rivojlantirish tamoyillarini belgilash;

o‘qituvchilarning uzluksiz kasbiy rivojlanishida uning motivatsion tayyorlik kompetentligini rivojlantirish modelini, motivatsiyaga doir nazariyalarning (motivatsion nazariyalarning) amaliyotdagi ustuvor yo‘nalishlarini belgilash orqali uning didaktik imkoniyatlarini kengaytirish;

o'qituvchining uzluksiz kasbiy rivojlanishini faollashtirishni motivatsion (tayyorlik) komponentlarining faoliyatga psixologik tayyorlik va qadriyatni ifodalaydigan integrativ xususiyatini belgilash asosida takomillashtirish;

motivatsion tayyorlik kompetentligini rivojlantirishda pedagogning individual ta'lim trayektoriyasini loyihalash jarayonlarini optimallashtirish, UKR samaradorligini oshirishga doir metodik hujjatlarni takomillashtirish bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqish.

**Tadqiqotning obyekti** sifatida o'qituvchilarning uzluksiz kasbiy rivojlanishga motivatsion tayyorlik kompetentligini rivojlantirish jarayonlari belgilanib, tajriba-sinov ishlariga Samarqand, Qashqadaryo, Namangan viloyatlari pedagoglarni yangi metodikalarga o'rgatish milliy markazlarining 620 nafar tinglovchilari jalb qilingan.

**Tadqiqotning predmeti** o'qituvchilarning uzluksiz kasbiy rivojlanishga motivatsion tayyorlik kompetentligini rivojlantirishning mazmuni, metod va mexanizmlari.

**Tadqiqotning usullari.** Tadqiqot jarayonida pedagogik kuzatuv, suhbat, so'rovnoma, ekspert baholash, qiyosiy tahlil, ilmiy umumlashtirish, modellashtirish, matematik-statistik tahlil hamda tajriba-sinov metodlaridan foydalanildi.

**Tadqiqotning ilmiy yangiligi** quyidagilardan iborat:

xalq ta'limi xodimlarini uzluksiz kasbiy rivojlantirishda sohaning maqsadi, vazifalari hamda mazmunga oid tarkibiy qismlari (subyektlari, resurslari, turlari, shakllari) integratsiyasi o'qituvchilarning motivatsion tayyorlikni orttirish, egallash, o'zlashtirish kompetentligini rivojlantirishda ehtiyojlar, kuzatish natijalari, o'quv jarayonidagi o'zgarishlarni pozitsiyaviy, funksional, adaptiv, abstraktiv, kommunikativ, yaxlit aniqlashtirish orqali takomillashtirilgan;

o'qituvchilarning kasbiy-pedagogik faoliyati, o'z-o'zini o'qitishga tayyorligini mazmunan modernizatsiyalash hamda pedagogik sifatlariga urg'u berish asnosida uzluksiz kasbiy rivojlanishga tayyorligini formal, noformal, subyektiv, tizimli, maqsadli, ongli, qadriyatli va motivatsion-kompetent rivojlantirish bosqichlari belgilangan;

o'qituvchilarning motivatsion tayyorlik kompetentligini rivojlantirish mazmunining motivatsion nazariyalarni amaliyotdagi ustuvor yo'nalishlari (ehtiyotlar iyerarxiyasi, mavjudlarini qoplash, undovchi omillar, kuzatish, kutilmalar) va tarkibiy tuzilmalari (motivlar, shaxsiy-kasbiy yo'nalganlik, xabardorlik, qiziqishlar, intilishlar, kreativ-refleksiv faoliyat natijalari)ni belgilash orqali didaktik imkoniyatlari kengaytirilgan;

o'qituvchining uzluksiz kasbiy rivojlanishini faollashtirish jarayondagi motivatsion tayyorlik komponentlarining o'z faoliyatida psixologik tayyorlik va qadriyatni ifodalaydigan integrativ xususiyatining kognitiv, hissiy, ruhiy, aqliy, jismoniy kuchini aniqlash hamda individual ta'lim trayektoriyasini shaxsiy motivlarini tushunish va refleksiyasiga ko'ra loyihalash asosida takomillashtirilgan.

**Tadqiqotning amaliy natijalari** quyidagilarda o'z aksini topgan:

XTXUKRga qo'yiladigan davlat talablari hamda malaka oshirish o'quv mazmunini takomillashtirish yuzasidan takliflar ishlab chiqilgan;

o'qituvchilarning UKRga motivatsion tayyorlik kompetentligini rivojlantirish, o'quv mazmunini kasbiy ehtiyojlar asosida shakllantirish, invariant, variativ qismlarini belgilash va bu jarayonda subyektlar faoliyatini muvofiqlashtirish bo'yicha metodik tavsiyalar yaratilgan;

o'qituvchining uzluksiz kasbiy rivojlanishga motivatsion tayyorlik kompetentligini rivojlantirishning ilmiy-metodik kuzatuv bosqichlari aniqlangan;

malaka oshirish o'quv mazmunini shakllantirishda tinglovchining ishtirokiga sharoit yaratish, uning alohida xususiyatlari, ichki salohiyati va refleksiyasini inobatga olish orqali individual kasbiy rivojlanish trayektoriyasini tuzish chora-tadbirlari ishlab chiqilgan;

o'qituvchilarning o'z ustida ishlash, malaka oshirish uzluksizligini mustaqil ta'minlash, turlari va shakllarini integratsiyalash, mavjud resurslaridan optimal foydalanish, motivatsion tayyorlik, o'zgarishlarga hissiy barqarorlikni rivojlantirishga doir o'quv mazmuni takomillashtirilgan.

**Tadqiqot natijalarining ishonchligi** qo'llanilgan yondashuv, prinsiplar va yo'nalishlarning ilmiy-metodik asoslanilganligi, nazariy ma'lumotlarning rasmiy manbalardan olinganligi, qo'yilgan masalaga metodologik, psixologik, pedagogik, metodik jihatdan yondashilganligi, amalga oshirilgan tahlillar, tajriba-sinov ishlari samaradorligi matematik-statistik metodlar vositasida aniqlanganligi, xulosa, taklif va tavsiyalarning amaliyotga joriy etilganligi hamda vakolatli tashkilotlar tomonidan tasdiqlanganligi bilan izohlanadi.

**Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.** Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati taklif etilgan motivatsion tayyorlik kompetentligini rivojlantirish bosqichlari va rivojlantirish modellari, uzluksiz kasbiy rivojlanish mohiyatining yoritilganligi, individuallashtirish va pedagog xodimlarda individual kasbiy rivojlanish trayektoriyasini tuzish motivatsiyasi shakllantirilganligi, UKRga motivatsion tayyorlik kompetentligini rivojlantirishning ilmiy-amaliy, tashkiliy-targ'ibot yo'nalishlarini belgilash imkoniyati ilmiy asoslanganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati XTXUKRda tizimning barcha resurslaridan optimal foydalanish, me'yoriy-huquqiy hujjatlarni ishlab chiqish, jumladan, o'quv mazmunini ta'lim ehtiyojlari asosida takomillashtirish, zamonaviy o'quv-metodik ta'minotini kuchaytirish, ta'lim sifatini oshirishga xizmat qilishi bilan belgilanadi.

**Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi.** Xalq ta'limi xodimlarini uzluksiz kasbiy rivojlantirish tizimini takomillashtirish bo'yicha ishlab chiqilgan nazariy va amaliy takliflar asosida:

xalq ta'limi xodimlarini uzluksiz kasbiy rivojlantirishda sohaning maqsadi, vazifalari hamda mazmunga oid tarkibiy qismlari (subyektlari, resurslari, turlari, shakllari) integratsiyasi o'qituvchilarning motivatsion tayyorlikni orttirish, egallash, o'zlashtirish kompetentligini rivojlantirishda ehtiyojlar, kuzatish natijalari, o'quv jarayonidagi o'zgarishlarni pozitsiyaviy, funksional, adaptiv, abstraktiv, kommunikativ, yaxlit aniqlashtirish orqali takomillashtirishga doir taklif va tavsiyalardan "Uzluksiz kasbiy rivojlantirish – 2022" loyihasini

bajarishda foydalanilgan (Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligining 2023-yil 6-martdagi 04-02/3-64-son ma'lumotnomasi). Natijada, pedagoglarning kasbiy mahoratini uzluksiz oshirish, o'quv ehtiyojlarini aniqlash, yangiliklarga motivatsion tayyorlik hamda ularga doimiy ilmiy-metodik yordam ko'rsatish imkonini bergan;

o'qituvchilarning kasbiy-pedagogik faoliyati, o'z-o'zini o'qitishga tayyorligini mazmunan modernizatsiyalash hamda pedagogik sifatlariga urg'u berish asnosida uzluksiz kasbiy rivojlanishga tayyorligini formal, noformal, subyektiv, tizimli, maqsadli, ongli, qadriyatli va motivatsion-kompetent rivojlantirish bosqichlarini belgilashga doir takliflaridan PZ-2014-0910185149-raqami bilan ro'yxatdan o'tgan "Umumiy o'rta ta'lim tizimida o'quvchilarning kompetensiyalarini shakllantirishga yo'naltirilgan ta'lim texnologiyalari" mavzusidagi amaliy loyihani bajarishda foydalanilgan (Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligining 2023-yil 6-martdagi 04-02/3-64-son ma'lumotnomasi). Natijada kompetentlik sifatlarining rivojlantirilishi o'qituvchining uzluksiz kasbiy rivojlanishga motivatsion tayyorlik darajasini oshirishda muhim omil ekanligi dalillangan;

o'qituvchilarning motivatsion tayyorlik kompetentligini rivojlantirish mazmunining motivatsion nazariyalarni amaliyotdagi ustuvor yo'nalishlari (ehtiyotlar iyerarxiyasi, mavjudlarini qoplash, undovchi omillar, kuzatish, kutilmalar) va tarkibiy tuzilmalari (motivlar, shaxsiy-kasbiy yo'nalganlik, xabardorlik, qiziqishlar, intilishlar, kreativ-refleksiv faoliyat natijalari)ni belgilash orqali didaktik imkoniyatlarini kengaytirishga doir takliflaridan FZ-2016-0909111822-raqami bilan ro'yxatdan o'tgan "Darsliklar va o'quv adabiyotlari mazmuniga Sharq pedagogik tafakkur durdonalarini singdirish orqali o'quvchilarda "ommaviy madaniyat"ga qarshi kurashchanlik ko'nikmalarini shakllantirish mexanizmlari" mavzusidagi fundamental loyihani bajarishda foydalanilgan (Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligining 2023-yil 6-martdagi 04-02/3-64-son ma'lumotnomasi). Natijada motivatsion tayyorlik kompetentligining ishlab chiqilgan modeli o'qituvchining kasbiy-pedagogik qobiliyatlarini rivojlantirishning o'ziga xos metodologik, ilmiy-amaliy usuli sifatida uzluksiz kasbiy rivojlanish mazmunida aks etgan.

o'qituvchining uzluksiz kasbiy rivojlanishini faollashtirish jarayondagi motivatsion tayyorlik komponentlarining o'z faoliyatida psixologik tayyorlik va qadriyatni ifodalaydigan integrativ xususiyatining kognitiv, hissiy, ruhiy, aqliy, jismoniy kuchini aniqlash hamda individual ta'lim trayektoriyasini shaxsiy motivlarini tushunish va refleksiyasiga ko'ra loyihalash asosida takomillashtirishga doir takliflaridan Xalq ta'limi vazirligining 2022-yil 20-yanvardagi "Xalq ta'limi xodimlarini uzluksiz kasbiy rivojlantirish tizimini joriy etish to'g'risida"gi 18-sonli buyrug'i bilan tasdiqlangan namunaviy o'quv dasturlarini ishlab chiqishda foydalanilgan (Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligining 2023-yil 6-martdagi 04-02/3-64-son ma'lumotnomasi). Natijada, o'qituvchilarning uzluksiz kasbiy rivojlanishga nisbatan mas'uliyat va moslashuvchanligini oshirish, o'quv materiallarini o'z faoliyatlariga oson ko'chirish, o'qituvchining individual kasbiy

rivojlanish trayektoriyasini loyihalash va amalga oshirish samaradorligini ko‘tarishga erishilgan.

**Tadqiqot natijalarining aprobasiyasi.** Tadqiqot natijalari 6 ta xalqaro va respublika miqyosidagi anjumanlarda muhokamadan o‘tkazilgan.

**Tadqiqot natijalarining e‘lon qilinganligi.** Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha 17 ta ilmiy ishlar, shulardan, O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini e‘lon qilish uchun tavsiya etilgan nashrlarda 5 ta maqola, jumladan, 2 tasi respublika va 3 tasi xorijiy jurnallarda, 1 ta elektron qo‘llanma chop etilgan.

**Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi.** Dissertatsiya kirish, uch bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati va ilovalardan iborat bo‘lib, asosiy matn 132 betni tashkil etadi.

## DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Dissertatsiyaning **“Kirish”** qismida mavzuning dolzarbligi va zarurati asoslangan, muammoning o‘rganilganlik darajasi tahlil qilingan, tadqiqotning maqsadi, vazifalari, obyekti, predmeti, ilmiy yangiligi, amaliy natijalari, ularning ishonchligi, ilmiy va amaliy ahamiyati, joriy etilishi, nashr ishlari hamda dissertatsiya tuzilishiga doir ma‘lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning **“O‘qituvchilarning uzluksiz kasbiy rivojlanishga motivatsion tayyorlik kompetentligini rivojlantirishning nazariy-metodologik asoslari”**, deb nomlangan birinchi bobida motivatsiyaga oid ta‘riflar, motivatsion tayyorlik aspektining ilmiy tadqiqot sohasi, UKRda uzluksizlik, uzviylik va o‘qituvchilarni uzluksiz kasbiy rivojlantirish metodologiyasining huquqiy-me‘yoriy, ilmiy-uslubiy asoslari tahlilga tortilgan, mazmun-mohiyati va o‘qituvchini uzluksiz kasbiy rivojlanishga motivatsion tayyorligini ta‘minlashda uning kasbiy kompetentligini rivojlantirish ustuvor vazifa ekanligi yoritilgan.

Motivatsiyaning murakkab va serqirraligini tadqiq etish, ko‘plab yondashuvlar orqali uning asl tabiati, tarkibini tushunish hamda atroflicha o‘rganish alohida tasniflashni talab etadi. Aynan shu sabab bu tushuncha borasida olimlarning turli atamalardan foydalanganini va bir-biriga o‘xshamagan talqinlarini ko‘rish mumkin. Ishimizda ushbu nazariyaning asosi bo‘lgan motivatsiya hamda motivatsion tayyorlik aspektining konseptual asoslarini o‘rganish, tahlil qilish, aniqlash hamda bugungi o‘zgaruvchan ta‘lim muhitida o‘qituvchining uzluksiz kasbiy rivojlanishga motivatsion tayyorligini ta‘minlash maqsad qilindi.

Shu o‘rinda motiv hamda motivatsiya tushunchalarini farqlab olish zarur, o‘rganilgan adabiyotlarga ko‘ra, motivatsiya – motivning ongli shakllantirilish jarayoni, motivlar esa motivatsiyaning tuzilmasini tashkil etadi, degan xulosaga kelish mumkin. Motivatsiyaga doir nazariyalar va uni ta‘riflash tadqiqotlari turlicha bo‘lib, faqatgina motivatsiyaning tub mohiyati qarashlar xilma-xilligini o‘zida birlashtiradi va umumiy g‘oya, vazifa uchun xizmat qiladi.

Motivatsiya – bu odamlar va boshqa mavjudotlarning ma‘lum bir vaqtda xatti-harakatini boshlashi, davom ettirishi yoki to‘xtatishining sababidir. Motivatsion holatlar, odatda, subyekt ichida harakat qiluvchi, maqsadga

yo'naltirilgan xatti-harakatlarga moyillikni yaratadigan kuchlar sifatida tushuniladi. Ko'pincha, turli xil ruhiy holatlar bir-biri bilan raqobatlashadi va faqat eng kuchli vaziyat amalga oshiriluvchi maqsadni belgilaydi. Motiv – 1) insonni o'qishga yoki muayyan harakatlarni bajarishga undovchi turli sabablar yig'indisi; 2) o'quvchining ma'lum ehtiyojlarni qondirish bilan bog'liq faoliyatga moyilligi.

Demak, motivatsiyaning ilmiy-nazariy asoslari, tadqiqot aspekti keng miqyosda olib borilgan kuzatuvlar, tajriba-sinov ishlarida, statistik tahlillarda bir-biridan farq qiluvchi va raqobatlashuvchi xulosalarga ega bo'lganligi bilan muammolidir. O'quv motivi, ta'lim jarayoniga tayyorlik motivatsiyasi hamda uning nafaqat rivojlanganligi, balki o'qituvchining kompetentlik sifatiga aylanishi tadqiqotimiz mohiyatiga taalluqlidir.

Izlanishlarimizda ilmiy qarashlarni umumlashtirish va tahliliy o'rganish natijasida biz motivatsiyaga ta'limiy nuqtayi nazardan quyidagi yondashuvni shakllantirdik, *ya'ni motivatsiya* – bu o'qituvchi yoki o'quvchi tomonidan o'zining ta'lim berish va olishga, shaxsiy hamda kasbiy manfaatlarini, o'z maqsadlariga erishishni ta'minlashga undaydigan, ehtiyojlarini uyg'otadigan va rag'batlantiradigan kuchlarning doimiy faol jarayonidir.

Uzluksiz kasbiy rivojlanishda uning uzluksizligini, uzviyligini ta'minlovchi tamoyillar muhim ahamiyatga ega. Ko'pgina tadqiqotchilar uzviylik, uzluksizlik deganda, ta'lim bosqichlari uzluksizligini va ta'limda mavzular uzviyligini ta'minlashni tushunadilar hamda o'quv dasturlarining uzviyligi muammosi bilan shug'ullanadilar. Xuddi shu jarayon ta'limni isloh etish davrida ham takrorlanadi. Kasbiy rivojlanish, uzviylik va uzluksizlikda ta'lim mazmunini tanlash ham muhim ahamiyat kasb etishini unutmazlik lozim.

Umuman olganda, uzluksizlik – o'zaro mantiqiy izchillik asosida bog'langan hamda soddadan murakkabga qarab rivojlanib boruvchi va bir-birini taqozo etuvchi bosqichlardan iborat yaxlit ta'lim tizimi sifatida ta'riflansa, uzviylik esa ta'lim-tarbiya jarayonining muayyan ketma-ketlik asosida tashkil etilishini ifodalovchi muhim sifat bo'lib, u ma'lum bosqichda avvalgi bosqich o'quv faoliyati mazmunini tashkil etuvchi bilim, ko'nikma va malakalarning mustahkamlanishi, kengaytirilishi va chuqurlashtirilishini ta'minlaydi.

O'qituvchini uzluksiz kasbiy rivojlantirishga shu nuqtayi nazardan qaraganda, o'qituvchilarning bilim, ko'nikma, malaka va kompetentliklariga qo'yilgan davlat talablari har bir fan kesimida alohida ko'rsatilganligi, ushbu talablarni amalga oshirishda ularning ijodkorligi, tanqidiy fikrlashi, o'z ustida ishlashi, kasbiy rivojlanishida, shaxsiy samaradorlikka erishishida tizimli ishlar yo'lga qo'yilayotgan bo'lsa-da, biroq ba'zan pedagog-xodimlar tomonidan olib borilayotgan ishlar ko'lamida mas'uliyatni his etmaslik holatlaridan ham ko'z yumib bo'lmaydi. Izlanishlarimiz natijasida "uzluksiz ta'lim" muammolarini tadqiq etishga oid adabiyotlarda ushbu tushunchaning bir-biridan farqlanuvchi bir nechta tavsifiy yo'nalishlari keltirilganining guvohi bo'ldik. Ular orasidan quyidagi uch turini alohida ta'kidlash mumkin:

1. Hayot davomidagi ta'lim (life-long learning, LLL).
2. Katta yoshlilar ta'limi (adult education).

3. Uzluksiz malaka oshirish ta'limi (continuing vocational education and training).

Shuningdek, UKR tarkibini aniqlashning hozirgi konseptual yondashuvlari asosan uchta muhim tamoyilga: hayot davomidagi uzluksizlik (life-long continuing), o'qitish ko'lamidagi kenglik (breadth in teaching scope), o'rganishga yo'naltirilganlik (directed at studying) ka asoslanadi.

Uzluksiz kasbiy rivojlanishga o'qituvchilarning motivatsion tayyorligini ta'minlashda uning kompetentlik sifatlarini rivojlantirish ustqurma qomponent hisoblanadi. O'qituvchilarning shaxsiy-kasbiy kompetentligini rivojlantirish yo'nalishlarida tashkil etiladigan innovatsion jarayonlarni samarali boshqarish, yangi g'oya, ilg'or tajriba va zamonaviy metodikalarni ta'lim amaliyotiga kiritish, mazkur jarayonga ularning qiziqishlarini oshirish hamda ko'zlangan natijalarga erishishda dialektiklik, davriylik, asoslanganlik darajasi, ixtiloflilik, ahamiyatlilik, tavakkalchilik, rahbarlik uslublarini tavsiflash qobiliyati, vaziyatga aloqadorlik, tarkibiy tuzilishga egaligi, innovatsion harakatlar strategiyasini shakllantirish imkoniyati, liderlik, ijtimoiy mo'ljallanganlik, ta'limni metodik jihatdan tabaqalashtirish qobiliyati, innovatsiyalarning subyekt tomonidan qabul qilishlik, moslashuvchanlik, mas'uliyat, uzluksiz va mustaqil bilim olishini ifodalovchi motivatsion tayyorlik kompetentligiga ega bo'lish zaruriyatini belgilaydi. O'z-o'zini rivojlantirishga kompetentlilik o'qituvchining o'z kasbiga nisbatan munosabatini ifodalaydi va unga faoliyatining konseptual loyihasi timsolida qaralishi pedagog xodimning doimo turli murakkablikdagi kasbiy vazifalar hamda pedagogik vaziyatlarning maqbul yechimini topishga layoqatli, yangiliklar uchun ochiq, tashabbuskor, intiluvchan bo'lishiga yetaklaydi. Demak, ayni shu jarayon o'qituvchidan o'z faoliyatiga munosabatini o'zgartirishni, zaruriyat tug'ilganda, qayta qurishni talab etadi. Bu esa tizimning ustuvor vazifalaridan biri sanaladi.

Ilmiy tahlillarimizdan kelib chiqib, o'qituvchining uzluksiz kasbiy rivojlanishga tayyorlik kompetentligining mazmuni va tuzilmasini quyidagi tarkibiy qismlarga ajratish mumkin:

- kognitiv (fan sohasiga oid bilimlar majmuyi bo'lib, ular asosida kompetentlik shakllantiriladi) tayyorlik;
- faoliyatga oid (amaliy tajriba) kasbiy tayyorlik;
- operatsion texnologik (vazifalarni amaliy hal etish ko'nikmalari va malakalari majmuyi) tayyorlik;
- shaxsiy (mazkur fan sohasidagi faoliyat uchun muhim bo'lgan individual-psixologik sifatlar va qobiliyatlar majmuyi) tayyorlik;
- motivatsion (o'z-o'zini rivojlantirish, faoliyatning maqsad va vazifalariga mos keladigan qadriyatlarga moyillik, motivlar majmuyi, dunyoqarash) tayyorlik;
- refleksiv (faoliyat va uning natijalarining mohiyatini tushunish, baholash, oldindan ko'ra bilish, kreativlik) tayyorlik.

Dissertatsiyaning ikkinchi bobi **“O'qituvchilarning uzluksiz kasbiy rivojlanishga motivatsion tayyorlik kompetentligini rivojlantirishning pedagogik-psixologik xususiyatlari”**, deb nomlanib, unda o'qituvchilarning UKRga motivatsion tayyorlik kompetentligini rivojlantirishning mualliflik modeli ishlab chiqilgan, tadqiqotning asosiy tushunchalariga mualliflik ta'riflari


shakllantirilgan, motivatsion tayyorlik kompetentligini rivojlantirish bosqichlari belgilangan va metodlariga to'xtalib o'tilgan.

Shunday qilib, biz "o'qituvchining uzluksiz kasbiy rivojlanishga motivatsion tayyorligi" toifasini subyektning pedagogik faoliyatni amalga oshirish qobiliyati bilan bog'ladik, maxsus bilim, ko'nikma, fazilatlar, mahorat va qadriyatli-motivatsion amaliy tajriba kabi yaxlit shaxsiy-kasbiy ehtiyojdan iborat bo'lgan qiymat yo'nalishlari asosida UKRni tashkillashtirish hamda joriy etish lozim, degan xulosaga keldik.

UKRga "*motivatsion tayyorlik kompetensiya*"si – bu o'qituvchining shaxsiy samaradorlikka erishish uchun mustaqil ravishda kasbiy ta'limni uzluksiz egallab borishga zaruriy intilishni ko'rsata olish va rivojlanishga sharoit yaratish orqali faoliyatidagi muammolarni hal qilish qobiliyatidir. Pedagogning motivatsion tayyorlik kompetentligi kasbiy kompetentligining tarkibiy qismi bo'lib, oliy ta'lim muassasalaridagi (keyingi o'rinlarda – OTM), shuningdek, rasmiy va norasmiy ta'limda tizimli, maqsadli kasbiy tayyorgarlik, tanlovda, mas'uliyat, o'zini anglash natijasidir.

*O'qituvchilarning uzluksiz kasbiy rivojlanishga motivatsion tayyorlik kompetentligini rivojlantirish* esa – tavsiflovchi, funksional va prognostik model xususiyatlarini o'zida jamlagan, uzluksiz kasbiy rivojlanish amaliyotini butun yoki uning alohida bo'laklari sifatida sxematik tarzda namoyon bo'luvchi belgilar tizimi yordamida shakllangan mantiqiy konstruksiyalarni ifodalovchi, motivatsion tayyorlikning algoritmlashgan modellashtirish bosqichlaridan iborat bo'lgan uzluksiz kasbiy rivojlanish istiqbollari hamda ijobiy natijalarga olib boruvchi jarayondir. Amalga oshirilgan tadqiqot natijalari o'qituvchilarning uzluksiz kasbiy rivojlanishga motivatsion tayyorlik kompetentligini rivojlantirish modelini yaratish hamda uning komponentlarini tavsiflash uchun asosli dalillarga ega bo'lish sharoitini taqdim qildi (1-rasm).

O'qituvchining kasbiy o'sishga motivatsion tayyorligi strukturaga ega bo'lgan tarkibiy-funksional kompleksning uzluksiz rivojlanishi bilan ta'minlanadi. Ushbu kompleks navbatdagi tarkibiy qismlarni o'z ichiga oladi: motivatsion, qadriyatli, kognitiv, faollashtiruvchi, hissiy-irodaviy va refleksli. Ishlab chiqilgan model obyektiv xususiyatlarni namoyon qiluvchi ko'plab mezonlarga (ilmiy, tizimli, maqsadli, dizayn, tizim tarkibiy qismlarining izchilligi, o'zaro bog'liqlik, ratsionallik, samaradorlik va boshqalar) muvofiqligini o'z ichiga oladi. Shunga ko'ra, bunday xususiyatlar hodisaning miqdoriy o'lchovini aniqlashga, maqsadga erishish darajasini baholashga yordam beradi. Yuqorida keltirilgan mualliflik modelida ta'kidlangan xususiyatlar hisobga olindi va u to'rt blokda shakllantirildi: 1) konseptual ( metodologik yondashuvlar, prinsiplar); 2) semantik (tayanch (fundamental), amaliy va metodik tayyorgarlik; uslubiy, nazariy, amaliy va texnologik bilimlar; kreativlik, dizayn, gnostik, tashkiliy, kommunikativ, nazorat va baholash ko'nikmalari); 3) protsessual (bosqichlar, shakllar, usullar, texnologiyalar, o'quv qo'llanmalari); 4) samaradorlik (tarkibiy qismlar, mezon va ko'rsatkichlar, tayyorgarlik darajalari).



**1-rasm. O'qituvchining uzluksiz kasbiy rivojlanishga motivatsion tayyorlik kompetentligini rivojlantirish modeli**

Tadqiqot davrida o'qituvchining uzluksiz kasbiy rivojlanishga motivatsion tayyorlik kompetentligini rivojlantirishning to'rtta bosqichi amalga oshirildi (1-jadval).

**1-jadval.**

**O'qituvchini UKRga motivatsion tayyorlik kompetentligini rivojlantirish bosqichlari**

Bosqich	Belgilangan vazifa	Amalga oshirilgan ishlar
